

ESHITISH BUZULISHINING DEFFERENSIAL TASHXISI

Qo'ysinboyeva Iroda G'ulomovna

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Univeriteti Pedagogika Psixologiya (logopediya)
yo'nalishi 3 – kurs - talabasi

Abstract: Bugungi maqolada bolalarda quloq, tomoq va burunda uchraydigan tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarning oldini olish va hamda uni samarali davolash tibbiyotning doimiy muammosi deb hisoblanadi. Tomoq va burunda uchraydigan tug'ma nuqsonlar. Burun bitishi va quloq oqishining sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari yoritib berilgan

Keywords: Deformatsiyasi, allergik holatlar, dimog' bezi katta bo'lishi, menengit , sepsis,

Bolarning qulog'i oqishiga hechqachon e'tiborsiz bo'lmang . Hozirgi kundagi tatqiqotlarga qaraganda sayyoramizdagi har bir ming nafar chaqaloqdan ikki nafari quloq, tomoq va burunda uchraydigan tug'ma nuqsonlar bilan dunyoga kelar ekan. Bundan tashqari sog'lom tug'ilgan bolalardan ham har bir ming nafaridan hech bo'lmasa 2-3 nafari bir yoshga kirgunicha yiqilib turli jarohatlar olib ko'p nuqsonlarni ortirib olishlari mumkin. Shuning bilan **bolalarda quloq, tomoq, burunda tug'ma va orttirilgan nuqsonlar yuzaga kelishi holatlari ko'payib bormoqda.** Bolalarda quloq, tomoq va burunda uchraydigan tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarning oldini olish va hamda uni samarali davolash tibbiyotning doimiy muammosi deb hisoblanadi.^[1] bolaning noto'g'ri dori-darmon iste'mol qilishi, gripp va o'tkir respirator virusli kasalliklar natijasida eshitish a'zolarida nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin. Bunday muammolarning oldini olish uchun ota-onalar farzandlariga juda kata e'tibor berib, bolalarni to'g'ri parvarishlashlari, agar bola shamollasa, albatta, shifokor ko'rigidan o'tkazishlari keyingina dori-darmon berishlari mumhumdir.

Burun bitishi va quloq oqishining sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari nimalardan iborat?

Burun to'sig'i deformatsiyasi, allergik holatlar, dimog' bezi katta bo'lishi, shuningdek, gijjalari ham burun bitishiga olib kelishi mumkin. Bolalarning yuzi yoki badanida oq dog'lar bor-yo'qligiga e'tibor qaratish zarur. So'lagi oqsa, kindik atrofida og'riqdan shikoyat qilsa, bolani darhol mutaxassislar ko'rigiga yo'llash tavsiya qilinadi. Quloq oqishi esa otit, ya'ni o'rta quloq yallig'lanishi belgisi bo'lishi mumkin. Bu kasallik kattalarga qaraganda bolalarda og'irroq kechadi. Ushbu xastalik yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklar – gripp, qizamiq, skarlatina sabab yuzaga kelishi mumkin. Kasallikni o'z bilganicha davolash, quloqqa har xil yog'lar tomizish, quloqni kovlash quloq pardasiga zarar yetkazishi mumkin. Bemor, albatta, lor shifokori nazorati

ostida davolanishi orqali juda ko'p nuqsonlarni oldini olishingiz mumkin. Kasallik qaytalanmasligi uchun sovqotish va shamollashlardan ehtiyot bo'lishlari kerak. Bolani cho'miltirayotganda suv kirmasligi uchun qulog'iga vazelinli paxta tiqish kerak. Aksariyat hollarda ba'zi onalar bunday vaziyatda bolaning qulog'iga paxtaning o'zini tiqiv qo'yishadi, bunda paxta suvni o'ziga shimib olib ichkariga o'tkazadi. Bu esa bolani sog'lig'i uchun juda zararli. Quloqdagi og'riq yoki suyuqlik ajralishi bilan kechadigan kasalliklar o'z vaqtida davolanmasa, meningit, sepsis, hatto miya to'qimasi absessi kabi og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin.^[2] shu bois bolaning qulog'i oqishiga befarq qarab bo'lmaydi. Quloqning barcha kasalliklari ham inson hayoti uchun xavfli, ayniqsa, yallig'lanish va yiring oqishi quloq suyaklarining yemirilishiga olib keladi. Bosh miyaga oqib o'tishi undan ham xavfliroq. O'rta quloq yoki ichki quloq bo'shligidan yiring oqishi quloqning eng og'ir va xavfli kasalligi hisoblanganligi uchun uni vaqtida davolatib, quloqdan oqayotgan yiringni to'xtatish lozim. Agarda o'z vaqtida davo qilinmasa, [meningit](#), sepsis, hatto miya to'qimasi absessi kabi asoratlarni ro'y berishi mumkin.^[1]

Kasallik sabablari

Bunga ko'pincha yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklar: Gripp, qizamiq, skarlatina va boshqalar sabab bo'ladi. Bunda yallig'lanish jarayoni burun-halqumdan eshitish nayi orqali nog'ora bo'shlig'iga o'tadi, hosil bo'lgan yiring, ba'zan quloq pardasini teshib, tashqi eshituv yo'lidan oqib chiqadi. O'rta quloq yallig'lanishi paydo bo'lishida (ayniqsa, bolalarda) adenoidlar, polip, burun to'sig'ining qiyshayishi muhim o'rin tutadi.

Belgilar va davolash

O'rta quloq o'tkir yallig'lanishida bemorning qulog'i, boshi qattiq og'riydi va eshitish og'irlashadi, ayrim hollarda harorat 37-38°C darajaga ko'tariladi. Davoni shifokor tayinlaydi. O'rta quloq yallig'lanishida shifokor tavsiyasi bo'yicha bozillama qilinadi, u og'riqni pasaytiradi va nog'ora bo'shlig'idagi yallig'lanishning surilib ketishiga imkon beradi. Bozillamani quloq suprasiga emas, balki uning yon-atrofiga quyiladi. Buning uchun bir necha qavat dokani suvda yoki teng barobar spirt qo'shilgan suvda ho'llab, mato o'rtasini qirqib, quloq suprasiga kiygiziladi. Bozillamani har 4 soatda, bolalarda esa terisi kuyib qolmasligi uchun har ikki-uch soatda almashtirib turish lozim. Teng barobar suv qo'shilgan spirtli va quruq-issiq bozillama navbatma-navbat kuyib turiladi. O'rta quloqni davolashda ilitilgan suyuq dorilarni (qaynatilgan) pipetka bilan tashqi yo'lga qo'yish yaxshi naf beradi. Buning uchun suyuq dori solingan shishacha 2-3 daqiqa ilik suvga kuyib quyiladi. Bemor sog' qulog'ini bosib, yonboshlab yotadi, quloqqa quyilgan dori 10-15 daqiqa turishi kerak.^[3]

Profilaktika uchun

Otitning oldini olish uchun organizmni chiniqtirish, darmondorilarga boy ovqatlar iste'mol qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish lozim. tamaki chekish va alkogolga ruju qilish nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Bu yallig'lanish keyinchalik o'rta quloqqa ham o'tadi. O'z vaqtida to'g'ri davo qilinsa, bemor butunlay sog'ayib ketadi. Ba'zan yallig'lanish asoratlari yuzaga kelishi yoki surunkali otitda, vaqti-vaqti bilan yiring oqib turishi mumkin. Quloq infeksiyasini butunlay oldini olish mumkin bo'lmasa-da, ular bilan bog'liq xavf omillarini kamaytirishning ba'zi usullari mavjud:

- Sigaret tutunini bolalardan, ayniqsa chaqaloqlardan uzoqroq tuting. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chekuvchi chekuvchilar atrofidagi bolalar ko'proq quloq infeksiyasiga ega.
- Bolalarni emlashlarini, ayniqsa pnevmokokk va grippga (grippga) qarshi emlashlarni yangilab turing.
- Hamma uchun, shu jumladan bolalar uchun qo'l yuvish uchun yaxshi gigienadan foydalaning.
- Bolalarni yoki yosh bolalarni shisha bilan yotqizishga (yoki uxlashga) ruxsat bermang.
- Bolalarni kasal bo'lgan odamlardan uzoqroq tuting.
- Faqat olti oy davomida emizing va bola kamida 12 oylik bo'lguncha emizishni davom eting.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxsus pedagogika m.u. Xamidova
2. Fayillar orginal .uz
3. Logopediya m.ayupova
4. Uz.vekipedia. Org
5. To'g'ri yollanma - samara uchun kafolat /bola va zamon jurnali nurkeldiyeva .d